

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

HOJIYEV AZIZJON XOLMURODOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK YARIM TEKISLIKDAGI SILINDRIK QOBIQDA
SIRT TO‘LQINLARINING YUKLANISHI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Technical
Sciences**

Hojiyev Azizjon Xolmurodovich

Qovushqoq-elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqda sirt to'liqlarining
yuklanishi..... 3

Хожиев Азизжон Холмуродович

Нагрузки поверхностных волн на цилиндрической оболочке
находящейся в вязкоупругой полуплоскости..... 21

Khozhiyev Azizjon Kholmurodovich

Surface wave loading on a cylindrical shell located in a viscoelastic half-plane.. 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

HOJIYEV AZIZJON XOLMURODOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK YARIM TEKISLIKDAGI SILINDRIK QOBIQDA
SIRT TO‘LQINLARINING YUKLANISHI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5207 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) institut veb-saytida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boltayev Zafar Ixtiyorovich
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Mavlanov To'liqin Mavlanovich
Texnika fanlari doktori, professor

Usmonov Botir Shukurillayevich
Texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tashkil qilingan bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 23-may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 358 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84;).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 8-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 10 apreldagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, (DSc)

Sh.R. Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari nomzodi, dotsent

B.S. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori (DSc)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zilzilabardosh bino va inshootlarni seysmik jihatdan faol bo'lgan hududlar uchun loyihalash va qurish uchun talofat ko'rishi yoki vayron bo'lishini oldini olish, sayoz o'rnatilgan yer osti inshootlarining deformatsiyalanuvchi konstruktiv elementlarini muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganish hamda hisoblash usullarini ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida seysmik va seysmoportlash to'lqinlar ta'sirida yer osti inshootlarining (tonnellar, metropolitenlar, yer osti piyodalar o'tish yo'laklari, injenerlik kommunikatsiya tizimlari: suv, oqava suv, neft hamda gaz quvurlari va boshqalar) zilzilabardoshligi yuqori va tejamkor bo'lishini ta'minlovchi konstruksiyalarni amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan, seysmik hududlarda yer osti quvurlari va kollektorlaridagi buzilishlar, zilzilalar va kuchli portlashlar natijasida yuzaga keladigan seysmik to'lqinlarning yer osti qobiqsimon inshootlarga ta'sirini hamda qobiqlarning mustahkamligini tadqiq qilishda materiallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olib, dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlashning matematik modellarini va zamonaviy hisob usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ko'p qatlamli to'ldiruvchili kompozit silindrik qobiqlarga seysmik to'lqin ta'siri muammosining ilmiy asoslarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, mazkur yo'nalishlarda maqsadli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, nazariyasini rivojlantirish, ilmiy asosini takomillashtirish, hisoblash usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilish va texnika sohasida turli dinamik yuklanishlar ta'siri ostida bo'lgan yer osti kompozit qobiqlarni amaliyotda tadbiiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amakga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹ gi qarori, 2024 yil 17 apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilabardoshliligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"² gi qarorlarida muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yer osti qurilish konstruksiyalarining mustahkamligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun takomillashtirilgan matematik modellarini, samarali hisoblash usullarini ishlab chiqish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"³ Qarori, "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilabardoshliligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4794-sonli qarori. "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 30.07.2020-y.

to'g'risida" PQ-4708-sonli 2020-yil 7-maydagi Prezident Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qovushqoq-elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqa sirt va hajmiy to'lqinlarning yuklanishi masalalari ilmiy nuqtayi nazardan quyidagi taniqli chet el olimlari tomonidan o'rganilgan: A.A.Ilyushin, A.G.Gorshkov, A.S.Volmir, Y.I.Shemyakin, A.N.Guz, I.Y.Troyanovskiy, I.A.Kiyko, L.A.Molotkov, Y.I.Novichkov, P.V.Krauklis, L.I.Slepyan, V.P.Matveenko, I.N.Shardakov, E.I.Starovoytov, N.S.Anofrikova va boshqalar.

Bu muammoni yechishda O'zbekiston olimlari M.T.Urazbayev, T.Sh.Shirinqulov, X.A.Raxmatulin, V.K.Kabulov, T.R.Rashidov, Y.N.Muborakov, B.M.Mardonov, K.S.Sultanov, Sh.M.Mamatqulov, M.M.Mirsaidov, F.B.Badalov, G.X.Xojmetov, A.A.Ishanxodjayev, T.M.Mavlonov, I.K.Mirzayev, A.A.Abdusattorov, I.I.Safarov, X.X.Xudaynazarov, B.E.Xusanov, B.S.Raxmonov, M.X.Teshayev, Sh.S.Yuldashev, S.A.Abduqodirov, M.K.Usarov va boshqalar o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Ular materialning reologik xususiyatlarini hisobga olib, turli formadagi (sterjin, silindrik va sferik jismlar) yer osti inshootlariga seysmik va portlash to'lqinlarning ta'sirini o'rganish usullarini va hisoblash algoritmlarini ishlab chiqishni rivojlantirishgan. Yuqoridagilarga qaramay, hozirgi vaqtda o'z yechimini topmagan bir qator muammolar mavjud. Ko'pgina ishlarda inshootlar chuqur ko'milgan deb olingan, yer sirtini va sirt to'lqinlarni hisobga olish dolzarb muammo hisoblanadi. Dissipativ bir jinsli bo'lmagan to'lqin o'tkazgichlardagi dinamik jarayonlarni o'rganish deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar dinamikasini nazariy jihatdan qanchalik ko'p boyitsa, uning energiya dissipatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi natijalari muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'pgina muammolarni yechishga imkon yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-01-2020-2024 "Qovushqoq-elastik jismlardagi mexanik jarayonlarni matematik modellashtirish" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qovushqoq-elastik yarim fazoda joylashgan silindrik qobiqqa sirt to'lqinlari yuklanishi masalasining matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmlarini ishlab chiqishdan hamda sonli natijalar olib tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushqoq-elastik yarim fazoda joylashgan silindrik qobiqqa bo'ylama, ko'ndalang va sirt (Reley) to'lqinlari ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holatini topish masalasining matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

qovushqoq-elastik silindrik qobiqqa bo'ylama va ko'ndalang to'lqin yuklanishi natijasida qobiq va uni o'rab turuvchi muhitdagi dinamik kuchlanish-deformatsiya holatiga solishtirma baho berish;

qovushqoq-elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqda sirt (Reley) to'liqini ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik deformatsiya holatini chekli elimentlar usuli orqali tadqiq qilish;

sirt to'liqining (Reley) mustahkamlanmagan silindrik bo'shliq sathidagi kuchlanishlar yig'ilishiga solishtirma baho berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida silindrik qobiq olingan.

Tadqiqotning predmetini uzun qovushqoq-elastik silindrik qobiqqa bo'ylama yoki ko'ndalang hamda sirt to'liqlari yuklanishining geometrik va fizik-mexanik parametrlarga bog'liq holda so'nishini butun sistema bo'yicha baholash masalalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida elastiklik nazariyasi deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarini yechish uchun deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi va matematik-fizikaning maxsus funksiyalari orqali yechimni topish, Myuller va Furening integral almashtirishlari, Gauss usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qovushqoq-elastik yarim fazoda joylashgan silindrik qobiqqa bo'ylama va ko'ndalang hamda sirt (Reley) to'liqlari ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holatini topish masalasi matematik qo'yilgan, analitik va sonli yechish usuli va algoritmi ishlab chiqilgan;

qovushqoq-elastik silindrik qobiqqa sirt to'liqin yuklanishi natijasidagi kuchlanish-deformatsiya holatiga ko'milish chuqurligining ta'siri tushuvchi to'liqinning uzunligiga bog'liqligi va chuqurlik oshishi bilan ko'chishlarni eksponensial kamayib borishi topilgan;

qovushqoq-elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqda garmonik davriy kuch ta'sirida tarqalgan to'liqin natijasida hosil bo'ladigan dinamik kuchlanishlar deformatsiya holatining ko'milish chuqurligi, majburiy kuch chastotasi va garmonik kuch amplitudasiga bog'liqligi aniqlangan;

silindrik qobiqning kuchlanganlik-deformatsiya holatiga uzun to'liqlar sohasida statik holat kuchlanishidan 20 % gacha ko'p bo'lishi topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqlarga seysmik to'liqin yuklanishi oqibatida hosil bo'ladigan kuchlanishlar va deformatsiya holati uchun silindrik jismlar mustahkamligini hisoblash usullari ishlab chiqilgan;

ko'p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqqa seysmik to'liqin yuklanishi spektral masalada kompleks chastotalarning chekli sondagi modalarini topish muammosi hal qilingan;

ko'p qatlamli suyuqlikli kompozit silindrik qobiqlarga seysmik va bo'ylama yoki ko'ndalang to'liqin yuklanish ostidagi deformatsiyalanuvchi muhit va silindrik qobiq bilan himoyalangan silindrik bo'shliqdagi kuchlanishlar taqsimoti aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy va spektral masalalarning correct qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik munosabatlarning qat'iyiligi asosida yechish usullaridan tizimli foydalanish va boshqa olimlarning olgan yechimlari bilan taqqoslashlar orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elastik muhitda joylashgan quvur o'tkazgichlarga to'liqin yuklanishi va difraksiyasi nazariyasining rivojlanishiga

salmoqli hissa qo'shish bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati elastik muhitda joylashgan aniq parametrlarga ega bo'lgan, quvur o'tkazgichlarga to'liq yuklanishi oqibatida hosil bo'ladigan kuchlanishlar va deformatsiya holatining yangi qonuniyatlarini o'rganish imkoniyatining paydo bo'lishi, chegaraviy va spektral masalada kompleks chastotalarning chekli sondagi modalarini topish muammosining hal qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotdagi qovushqoq-elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqda sirt to'liqlarning yuklanishi holatini hisoblash usullari va algoritmi bo'yicha olingan natijalar asosida:

dissertatsiyada ishlab chiqilgan to'liq funksiyasining xos formalar bo'yicha yoyish usulidan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan F-4-14 raqamli "Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning tashqi kuchlari ta'siridagi kuchlanish-deformatsiyalar holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblab chiqish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2025-yil 6-yanvardagi № 1-1-01/04-70-son ma'lumotnomasi). Natijada qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit sayyoz ko'milgan quvurlar liniyasining ta'sir omillari formalarini aniqlashga imkon bergan;

birinchi tartibli bir jinsli xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish metodikasidan Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2016-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-01 "Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2024-yil 27-avgustdagi № 1/01-2247-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qovushqoq-elastik silindrik qobiqqa hajmiy to'liq yuklanishidagi kuchlanish-deformatsiya holatini va so'nishini xarakterlovchi dispersion munosabatlar aniqlangan;

dissertatsiyada aniqlangan R to'liqning yer sirtida ta'siri natijasida, silindrik qobiqdagi o'q bo'yicha siljish va egilish kuchlanishi $0.135 \leq \frac{h}{\lambda} \leq 0.163$ oralig'ida o'zining eng katta qiymatiga erishish samarasidan hamda inshootlarning tutash muhandislik quvurlarining seysmik bardoshlilikini ta'minlash usullaridan "Uzjamoaloyiha" va "Qurilishloyiha" MChJlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Seysmik xavfsizlikni ta'minlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'limining 2024-yil 10-dekabrdagi №25/1-1114-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, rezonans hodisasi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarini oldindan aniqlash darajasi 20% gacha oshgan va materiallar reologik parametrlarini tanlash hisobidan konstruksiyalarning engil, tejamkor va xizmat qilish bardavomligini 30% gacha oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shulardan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Deformatsiyalanuvchi yarim tekislikdagi silindrik qobiqa seysmik (sirt va hajmiy) to'lqinlar yuklanishidan hosil bo'lgan kuchlanishlar-deformatsiya holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida hajmiy va sirt to'lqinlar ta'sirida sayoz o'rnatilgan silindrik (ko'ndalang kesimi turlicha bo'lgan) quvurlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan hamda adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan. Bu bob uch paragrafdan iborat. Birinchi paragrafi “Deformatsiyalanuvchi yarim tekislikda joylashgan silindrik qobiqlarga to'lqin yuklanishi va difraksiyasini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili” deb nomlanadi. Unda seysmik zonada gruntli muhitda joylashgan silindrsimon qobiqlar, quvur o'tkazgichlarining tuzilmalari, metro tonnolari, gaz omborlari va boshqa yer osti inshootlarining zilzila bardoshligini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan. Bu bobning ikkinchi paragrafi “Elastik muhitda joylashgan aniq parametrlarga ega bo'lgan, quvur o'tkazgichlarning xususiy tebranishlar chastotasi va so'nish koeffitsiyentini aniqlashga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili” deb nomlangan. Bu paragrafda seysmik hududlarda quvurlarni loyihalashda ulaarning zilzila zo'riqlashlariga bardosh beradigan, xavfsiz va tejamkor bo'lgan va shu bilan birga, boshqa tabiiy va texnogen xavf-xatarlarga qarshi kurashda qo'llaniladigan yechimlarga mos keladigan konstruktiv yechimlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Uchinchi paragraf “Zilzilabardosh qurilish bo'yicha zamonaviy seysmik me'yoriy qoidalar tahlili (QMQ)” deb nomlanadi. Unda seysmik yuklanishlar ta'siridagi yupqa devorli tonnolarni hisoblashga bag'ishlangan adabiyotlar tahlil etilgan. Ularni hisoblashda fazoviy holatni hisobga olish va hisoblash usullarini takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq- elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqqa seysmik to'lqin (sirt va hajmiy)larning yuklanishi masalasining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida seysmik to'lqin ta'siridagi qovushqoq- elastik yarim tekislikdagi silindrik qobiqning dinamik kuchlanganlik- deformatsiya holatini topish va tahlil qilish muammosining matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Yupqa silindrik qobiqlar uchun Kirxgof-Lyav gipotezasi o'rinli bo'lgan qobiqning harakat differensial tenglamasi, qalin silindrlar uchun deformatsiyalanuvchan jismlar mexanikasining qovushqoq-elastiklik nazariyasining tenglamalaridan foydalanildi. U holda ko'p qatlamli qobiq

(yoki qalin devorli silindr)lardan tashkil topgan mexanik sistemaning harakat tenglamalari quyidagicha bo‘ladi:

$$(\tilde{\lambda}_j + 2\tilde{\mu}_j) \text{grad div } \vec{u}_j - \tilde{\mu} \text{rot rot } \vec{u}_j + \vec{b}_j = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{u}_j}{\partial t^2}, (j=1, 2, \dots, N). \quad (1)$$



1-rasm. Deformatsiyalanuvchi yarim fazoda joylashgan silindrik qobiqqa to‘lqin yuklanishining hisob sxemasi

Agar mexanik sistema yupqa silindrik qobiqlardan tashkil topgan bo‘lsa, u holda uning harakat differensial tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$L\tilde{E}\vec{u} = \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0 h_0} \vec{p} + \rho_0 \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0} \left(\frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2} \right), (k=1, 3, \dots, N-1) \quad (2)$$

$$\Delta \phi_0 - \frac{1}{c_\infty^2} \ddot{\phi}_0 = 0. \quad (3)$$

Agar silindrik qatlam qovushqoq suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, u holda (3) tenglama orqali ifodalanadi.

Agar silindrik qobiq qatlamlardan tashkil topgan bo‘lsa, u holda uning harakati tenglamalari (1) va (2) ko‘rinishda bo‘ladi. Quyidagicha kontakt va chegaraviy shartlar qo‘yiladi:

1. Agar silindrik jism qatlamlardan tashkil topgan bo‘lsa, u holda uning harakati tenglamalari (1) ko‘rinishda bo‘ladi. Qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik sharti qo‘yiladi

$$\begin{aligned} r = a_k: \quad \sigma_{rrk} &= \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{r\theta(k+1)}; \quad \sigma_{rz k} = \sigma_{rz(k+1)}; \\ u_k &= u_{k+1}; \quad \vartheta_k = \vartheta_{k+1}; \quad w_k = w_{k+1}. \end{aligned} \quad (4)$$

2. Qatlamlar orasida massasiz element qo‘yilgan bo‘lsa, u holda chegaraviy (kontakt) shartlari, tekis deformatsiya holati uchun, quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} r = a_k: \quad \sigma_{rrk} &= \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{r\theta(k+1)}; \\ \sigma_{rrk} &= \bar{k}_r (u_{rk} - u_{r(k+1)}); \\ \sigma_{r\theta k} &= \bar{k}_\theta (u_{\theta k} - u_{\theta(k+1)}). \end{aligned} \quad (5)$$

3. Agar $r = a_1$ da birinchi qatlam suyuqliksiz yoki to‘ldiruvchisiz bo‘lsa, u holda kuchlanishdardan ozod bo‘lish sharti qo‘yiladi

$$r = a_k: \quad \sigma_{rrN} = 0; \quad \sigma_{r\theta N} = 0; \quad \sigma_{rzN} = 0. \quad (6)$$

4. Agar radial koordinata cheksizlikka intilsa, u holda bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin

potensiallari Zommerfeldning yutilish shartini qanoatlantiradi

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\varphi = const, \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} - ik\varphi \right) = 0, \quad (7)$$

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\psi = const, \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} - ik_2\psi \right) = 0.$$

Faraz qilaylik, inshoot muhit bilan massasiz deformatsiyalanuvchi elementlar (inersiyasiz element) orqali aloqada bo'lsin. Buni Vinkler asosi ham deyiladi. Bu silindrik quvur uchun silindrik koordinatalar sistemasida quyidagicha bo'ladi:

$$q_{1r}^k = -\tilde{k}_r^k w^k; \quad q_{1\theta}^k = 0, \quad (8)$$

$$\tilde{k}_r^k [f(t)] = k_{r0}^k \left[f(t) - \int_0^t R_k(t-\tau) f(\tau) d\tau \right],$$

k_{r0}^k – oniy postel koeffitsiyenti, $R_k(t-\tau)$ – relaksatsiya yadrosi.

Vinkler asosi olinganda, (8) dan foydalanilganda, inersiya kuchini ham hisobga olganda, quyidagicha aniqlanadi:

$$q_{1r}^k = -\tilde{k}_r^k w^k - m_f \ddot{w}^k, \quad (9)$$

bunda m_f – asosning samarali massasi.

Endi 1-rasmda tasvirlangan silindrik jism uchun kontakt va chegaraviy shartlarni qo'yamiz

$$\sigma_{\bar{z}\bar{z}}^{(1)} = \sigma_{\bar{z}\bar{y}}^{(1)} = \sigma_{\bar{z}\bar{x}}^{(1)} = 0, \quad \bar{z} = 0,$$

$$\sigma_{\bar{r}_1\bar{r}_1}^{(2)} = \sigma_{\bar{r}_1\theta_{11}}^{(2)} = \sigma_{\bar{r}_1\bar{z}_1}^{(2)} = 0, \quad \bar{r}_1 = \tilde{R}_1,$$

$$u_{\bar{r}_1}^{(1)} = u_{\bar{r}_1}^{(2)}, u_{\theta_1}^{(1)} = u_{\theta_1}^{(2)}, u_{\bar{z}_1}^{(1)} = u_{\bar{z}_1}^{(2)}, \quad \bar{r}_1 = \tilde{R}_0,$$

$$\sigma_{\bar{r}_1\bar{r}_1}^{(2)} = \sigma_{\bar{r}_1\theta_{11}}^{(2)} = \sigma_{\bar{r}_1\bar{z}_1}^{(2)} = 0, \quad \bar{r}_1 = \tilde{R}_1, \quad (10)$$

$$\sigma_{\bar{r}_1\bar{r}_1}^{(1)} = \sigma_{\bar{r}_1\bar{r}_1}^{(2)}, \sigma_{\bar{r}_1\theta_1}^{(1)} = \sigma_{\bar{r}_1\theta_1}^{(2)}, \sigma_{\bar{r}_1\bar{z}_1}^{(1)} = \sigma_{\bar{r}_1\bar{z}_1}^{(2)}, \quad \bar{r}_1 = \tilde{R}_0.$$

Muhitda tarqalayotgan silindrik va tekis to'lqinlar, tekis deformatsiya holati uchun, quyidagicha bo'ladi:

$$1. \varphi^{(p)} = A e^{i(\alpha x - \omega t)}, \psi^{(p)} = 0; \quad 2. \psi^{(p)} = A e^{i(\beta x - \omega t)}, \varphi^{(p)} = 0. \quad (11)$$

Agar grunt sirtida Reley to'lqini tarqalsa, u holda gruntning ko'chishi, izotrop muhit uchun, quyidagicha bo'ladi:

$$U_x = \frac{1}{2} A \left[2e^{b_1 y} - \left(2 - \frac{V_R^2}{V_s^2} \right) e^{b_2 y} \right] \cos(x - V_R t),$$

$$U_y = \frac{1}{4} A \frac{\left(2 - \frac{V_R^2}{V_s^2} \right)}{\sqrt{1 - \frac{V_R^2}{V_s^2}}} \left[\left(2 - \frac{V_R^2}{V_s^2} \right) e^{b_2 y} - 2e^{b_1 y} \right] \sin(x - V_R t), \quad (12)$$

$$b_1 = k \sqrt{1 - \frac{V_R^2}{V_p^2}}, b_2 = k \sqrt{1 - \frac{V_R^2}{V_s^2}},$$

bunda U_x va U_y – mos ravishda muhit sirti nuqtalarining x va y koordinata o'qlari bo'yicha ko'chishlari; A – to'lqin amplitudasi; V_R , V_s va V_p – mos ravishda Reley, ko'ndalang va bo'ylama to'lqin tezliklari, $k = 2\pi/\lambda$, λ – to'lqin uzunligi, t – vaqt.

Silindrik qobiq va uni o‘rab turuvchi muhitning xususiyl hosilali differensial tenglamasining ko‘chish vektorini bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin potentsiallari orqali ifodalaymiz

$$\vec{u}_j = \text{grad}\phi_j + \text{rot}\vec{\psi}_j, \text{div}\vec{\psi} = 0. \quad (13)$$

Asosiy masalalar elastiklik nazariyasining tekis deformatsiya holati masalasiga olib kelinadi. Shuning uchun bo‘ylama ϕ_j va ko‘ndalang $\vec{\psi}_j(\psi_{zj}, 0, 0)$ to‘lqin potentsiallari quyidagi integro differensial tenglamalarni qanoatlantiradi:

$$\Gamma_{\lambda\mu\kappa} \nabla^2 \varphi_k - \frac{1}{c_{p0k}^2} \frac{\partial^2 \varphi_k}{\partial t^2} = 0; \quad \Gamma_{\mu\kappa} \nabla^2 \psi_z - \frac{1}{c_{s0k}^2} \frac{\partial^2 \psi_z}{\partial t^2} = 0; \quad (14)$$

(14) tenglamalarning yechimi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \varphi_j &= \sum_{n=0}^{\infty} [A_{nj} H_n^{(1)}(\alpha_j r) + A'_{nj} H_n^{(2)}(\alpha_j r)] \cos n\theta e^{-i\omega t}; \\ \psi_j &= \sum_{n=0}^{\infty} [B_{nj} H_n^{(1)}(\beta_j r) + B'_{nj} H_n^{(2)}(\beta_j r)] \sin n\theta e^{-i\omega t}; \quad j = 1, 2, \dots, N-1 \\ \varphi_N &= \sum_{n=0}^{\infty} [C_{nN} H_n^{(1)}(\alpha_N r) + D_{nN} H_n^{(2)}(\alpha_N r)] \cos n\theta e^{-i\omega t}, \\ \psi_N &= \sum_{n=0}^{\infty} [M_{nN} H_n^{(1)}(\beta_N r) + L_{nN} H_n^{(2)}(\beta_N r)] \sin n\theta e^{-i\omega t}, \\ \varphi_0 &= \sum_{n=0}^{\infty} [K_{n0} J_n(\alpha_0 r) + K'_{n0} N_n(\alpha_0 r)] \cos n\theta e^{-i\omega t}. \end{aligned} \quad (15)$$

Bunda n – butun son; ω – erkin tebranish masalasi o‘rganilganda kompleks chastota, majburiy tebranish o‘rganilganda haqiqiy kattalik deb olinadi.

Bunda $A_{nj}, A'_{nj}, B_{nj}, B'_{nj}, C_{nj}, D_{nj}, L_{nN}, M_{nN}, K_{nN}$ va K'_{nN} – ixtiyoriy o‘zgarimas kattaliklar, bo‘lib, chegaraviy shartlardan topiladi; $H_n^{(1)}(\alpha_j r)$ va $H_n^{(2)}(\alpha_j r)$ – mos ravishda Bessel va Xankel funksiyalari $H_n^{(1),(2)}(\alpha r) = J_n(\alpha r) \pm iN_n(\alpha r)$.

Silindrik va dekart koordinatalar sistemasini bog‘lovchi munosabat quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{bmatrix} u_r \\ u_\theta \\ u_x \end{bmatrix} = T \begin{bmatrix} u_r \\ u_\theta \\ u_x \end{bmatrix}, \quad T = \begin{bmatrix} \cos \theta & \sin \theta & 0 \\ -\sin \theta & \cos \theta & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}, \quad \begin{bmatrix} \sigma_{rr} & \sigma_{r\theta} & \sigma_{rx} \\ \sigma_{\theta r} & \sigma_{\theta\theta} & \sigma_{\theta x} \\ \sigma_{xr} & \sigma_{x\theta} & \sigma_{xx} \end{bmatrix} = T \begin{bmatrix} \sigma_{yy} & \sigma_{yz} & \sigma_{yx} \\ \sigma_{xy} & \sigma_{zz} & \sigma_{zx} \\ \sigma_{xy} & \sigma_{xz} & \sigma_{xx} \end{bmatrix} T^T. \quad (16)$$

Bu yerda T – almashtirish matritsasi, T^T – transponirlangan matritsa.

Birichi holda silindrik jismga bo‘ylama hajmiy to‘lqin tushsin. U holda tushuvchi va qaytuvchi to‘lqinlar quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \varphi^{(p)} &= \phi_0 e^{-i(k_x^{(1)}x + k_y^{(1)}y + k_z^{(1)}z)}, \quad \varphi^{(s)} = R_{\phi, \phi} \phi_0 e^{-i(k_x^{(1)}x + k_y^{(1)}y - k_{z,p}^{(1)}z)}, \\ \psi^{(s)} &= R_{\psi, \phi} \phi_0 e^{-i(k_x^{(1)}x + k_y^{(1)}y - k_{z,s}^{(1)}z)}, \quad \chi^{(s)} = R_{\chi, \phi} \phi_0 e^{-i(k_x^{(1)}x + k_y^{(1)}y - k_{z,s}^{(1)}z)}, \end{aligned} \quad (17)$$

bunda (p) – tushuvchi to‘lqinni, (s) – qaytgan to‘lqinni ifodalaydi. To‘lqin sonlari quyidagicha topiladi: $k_x^{(1)} = k_{x,p}^{(1)} = -k_p^{(1)} \sin \theta_v \cos \theta_h$, $k_y^{(1)} = k_{y,p}^{(1)} = k_p^{(1)} \sin \theta_v \sin \theta_h$.

To‘lqin sonlari $k_{z,p}^{(1)}$ va $k_{z,s}^{(1)}$ mos ravishda z o‘qi bo‘yicha bo‘ylama va

siljish to‘lqin sonlarini ifoda qiladi

$$k_{z,p}^{(1)} = \sqrt{(k_p^{(1)})^2 - (k^{(1)})^2}, \quad k_{z,s}^{(1)} = \sqrt{(k_s^{(1)})^2 - (k^{(1)})^2},$$

bunda $\operatorname{Re}(k_{z,p}^{(1)}) > 0$ va $\operatorname{Re}(k_{z,s}^{(1)}) > 0$. U holda $\omega > 0$ deb olinadi. To‘lqin soni $k^{(1)}$ (x,y) tekisligida quyidagicha aniqlanadi: $k^{(1)} = \sqrt{(k_x^{(1)})^2 - (k_y^{(1)})^2}$. To‘lqin dinamikasining Snella qonuniga asosan x yo‘nalishidagi qaytuvchi bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin uchun $k_{x,p}^{(1)} = k_{x,s}^{(1)} = k_x^{(1)}$. Silindrik qobiqdan qaytgan to‘lqinlar va uni Gelmgols tenglamasi orqali olingan yechimlari “s,1”maydon uchun Xankelning 1 va 2 jinsli n-tartibli funksiyalar orqali ifodalanadi:

$$\begin{aligned} \varphi_{s,1}^{(1)} &= \sum_{n=-\infty}^{\infty} a_n H_n^{(2)}(k_a^{(1)} r_1) e^{i(n\theta_1 - k_x^{(1)} x)}, \quad \psi_{s,1}^{(1)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} b_n H_n^{(2)}(k_b^{(1)} r_1) e^{i(n\theta_1 - k_x^{(1)} x)}, \\ \chi_{s,1}^{(1)} &= \sum_{n=-\infty}^{\infty} c_n H_n^{(2)}(k_a^{(1)} r_1) e^{i(n\theta_1 - k_x^{(1)} x)}, \quad \varphi_{s,2}^{(1)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} d_n H_n^{(2)}(k_a^{(1)} r_2) e^{i(n\theta_2 - k_x^{(1)} x)}, \\ \varphi_{s,1}^{(1)} &= \sum_{n=-\infty}^{\infty} e_n H_n^{(2)}(k_b^{(1)} r_1) e^{i(n\theta_2 - k_x^{(1)} x)}, \quad \varphi_{s,1}^{(1)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} f_n H_n^{(2)}(k_b^{(1)} r_1) e^{i(n\theta_2 - k_x^{(1)} x)}, \end{aligned}$$

Bu yerda $a_n, b_n, c_n, d_n, e_n, f_n$ – ixtiyoriy integrallash doimiylari,

$$k_a^{(1)} = \sqrt{(k_p^{(1)})^2 - (k_x^{(1)})^2}, \quad k_b^{(1)} = \sqrt{(k_s^{(1)})^2 - (k_x^{(1)})^2}, \quad \operatorname{Re}(k_a^{(1)}) > 0 \quad \text{va} \quad \operatorname{Re}(k_b^{(1)}) > 0.$$

Bu holat grunda so‘nuvchi silindrik to‘lqin $\operatorname{Im}(k_a^{(1)}) < 0$ tarqalishi sifatida qabul qilinadi.

Ixtiyoriy o‘zgarmaslarni topish uchun chegaraviy shartlar (6) - (9) dan foydalansak, bir jinsli bo‘lmagan kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz


$$[C_2(c_{pj}, c_{sj}, R_{Ej}, a_j)] \{q\} = \{P_1\}, \quad (18)$$

bunda $\{q\}$ – vektor ustun bo‘lib, ixtiyoriy o‘zgarmaslardan tashkil topgan; $\{R\}$ – tashqi tushadigan to‘lqin ta’siri vektori; $[C_1]$ – kvadrat matritsa, elementlari Bessel va Xankel funksiyalaridan tashkil topgan. Kontur kuchlanishi $\sigma_{\theta\theta}$

$$\sigma_{\theta\theta}|_{r=0} = (\operatorname{Re} + iJ_m) e^{-i\alpha r} = \sqrt{\operatorname{Re}^2 + J_m^2} e^{-i(\alpha r - \gamma)}, \quad \gamma = \arctg \frac{J_m}{\operatorname{Re}} \quad (19)$$

Shunday qilib, ikkinchi bobda garmonik to‘lqin yuklanishi (va difraksiyasi) masalalarini yechishda ko‘chishlar orqali ifodalangan Lamé tenglamasidan foydalanib, ko‘chish potentsiallari orqali ifodalangan xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasini olindi va analitik yechimni Gauss, Laplas va maxsus funksiyalar usullari asosida olish metodikasi va algoritmi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik yarim tekislikda bo‘lgan silindrik qobiqa hajmiy seysmik to‘lqin yuklanishi xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida qovushqoq-elastik yarim tekislikda joylashgan qobiqqa bo‘ylama yoki ko‘ndalang hajmiy to‘lqin yuklanishi va difraksiyasi masalasi yechiladi. Bu bob uchta paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda Qovushqoq-elastik yarim tekislikda bo‘lgan silindrik qobiqqa hajmiy seysmik to‘lqin yuklanishi masalasining qo‘yilishi va yechish metodikasi keltirilgan. Ikkinchi paragrafda sonli natijalar va ularning tahlili keltirilgan.



2-rasm. Qovushqoq –elastik yarim tekislikda joylashgan silindrik qobiqqa hajmiy to‘lqin yuklanishining hisob sxemasi

Tushuvchi bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqinlar quyidagi munosabatlar orqali aniqlanadi:

$$\varphi^{(f)} = \varphi^{(p)} + \varphi^{(r)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} a_n J_n(k_{\alpha 1} r_1) e^{in\theta_1}, \psi^{(r)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} b_n J_n(k_{\beta 1} r_1) e^{in\theta_1}. \quad (20)$$

Bu yerda a_n va b_n ($n=0,1,2,\dots$) ixtiyoriy integral doimiylari. (20)- formulada tushuvchi bo‘ylama garmonik to‘lqinning yarim tekislik erkin sathidan qaytishi ifoda qilingan. Silindrik qobiqdan qaytgan to‘lqinlar quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi_1^{(s)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} A_n H_n^{(1)}(k_{\alpha 1} r_1) e^{in\theta_1}, \psi_1^{(s)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} B_n H_n^{(1)}(k_{\beta 1} r_1) e^{in\theta_1}, \quad (21)$$

bu yerda A_n va B_n – ixtiyoriy integrallash doimiylari. Bu(21) yechim cheksizlikda Zommerfeld yutilish shartini qanoatlantiradi. k_{α} va k_{β} bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin sonlari mos ravishda. Qovushqoq-elastik muhit uchun $k_{\alpha k} = \omega / c_{\alpha k} \Gamma_{\alpha k}, k_{\beta k} = \omega / c_{\beta k} \Gamma_{\beta k}$ lar kompleks kattalik hisoblanadi. Silindrik qobiqdan qaytgan to‘lqinning erkin sathdan qaytishi ham quyidagicha olinadi:

$$\varphi_2^{(s)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} A_{2n} J_n(k_{\alpha 1} r_1) e^{in\theta_1}, \psi_2^{(s)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} B_{2n} J_n(k_{\beta 1} r_1) e^{in\theta_1} \quad (22)$$

Tushuvchi va qaytuvchi bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin potentsiallari quyidagicha bo‘ladi:

$$\varphi^0 = \varphi^{(f)} + \varphi_1^{(s)} + \varphi_2^{(s)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} [(a_n + A_{2n}) J_n(k_{\alpha 1} r_1) + A_{1n} H_n^{(1)}(k_{\alpha 1} r_1)] e^{in\theta_1},$$

$$\psi^0 = \psi^{(f)} + \psi_1^{(s)} + \psi_2^{(s)} = \sum_{n=-\infty}^{\infty} [(b_n + B_{2n}) J_n(k_{\beta 1} r_1) + B_{1n} H_n^{(1)}(k_{\beta 1} r_1)] e^{in\theta_1}, \quad (23)$$

bu yerda $A_{1n}, A_{2n}, B_{1n}, B_{2n}$ – ixtiyoriy integral doimiylari. Ko‘rinib turibdiki, to‘lqin potentsiallari orqali barcha tushuvchi va qaytuvchi to‘lqinlar ta‘sirini hisobga oldik. Silindrik qobiq uchun to‘lqin tenglamasining yechimi quyidagicha bo‘ladi:

$$\varphi^c = \sum_{n=-\infty}^{\infty} [C_{1n} H_n^{(1)}(k_{\alpha 2} r_1) + C_{2n} H_n^{(2)}(k_{\alpha 2} r_1)] e^{in\theta_1},$$

$$\psi^c = \sum_{n=-\infty}^{\infty} [D_{1n} H_n^{(1)}(k_{\beta 2} r_1) + D_{2n} H_n^{(2)}(k_{\beta 2} r_1)] e^{in\theta_1},$$
(24)


bu yerda $C_{1n}, C_{2n}, D_{1n}, D_{2n}$ – ixtiyoriy integral doimiylari. Agar silindrik qobiqqa ko‘ndalang to‘lqin kelib tushsa, u holda

$$\psi_1^{(p)} = ik_s B e^{ik_s(x\sin\gamma_s + y\cos\gamma_s - c_s t)}, \varphi_1^{(p)} = \chi_1^{(p)} = 0, k_s c_s = \omega.$$

Dekart koordinatalar sistemasida berilgan tushuvchi bo‘ylama to‘lqin potensialini dekart koordinatalar sistemasida ham yozish mumkin

$$\varphi_1^{(p)} = A e^{i(\gamma y - \omega t)} \sum_n \epsilon_n i^n J_n(k_\alpha r) \cos n\theta, \psi_1^{(p)} = \chi_1^{(p)} = 0.$$

Ixtiyoriy integral doimiylari sakkiz noma‘lumli kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasi (18) dan aniqlanadi.




3-rasm. Kontur kuchlanish epyurasi (Q235):

1. $\omega=20$ Hz; 2. $\omega=40$ Hz; 3. $\omega=80$ Hz.


Hisoblashlarda Koltunov–Rjanitsinning uch parametrliligidan foydalanilgan: $R(t) = A e^{-\beta t} / t^{1-\alpha}$, $A=0,048$; $\beta=0,05$; $\alpha=0,1$. Qovushqoq-elastik yarim tekislikda joylashgan aylanasimon ko‘ndalang kesim yuzali tunnelga garmonik to‘lqin ta‘sirida hosil bo‘ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati masalasi natijalari, ya‘ni qobiqning turli chastotalardagi kontur kuchlanishlari epyuralari 3 va 4-rasmlarda keltirilgan ($\frac{h}{a}=2,0$). Sonli hisob natijalarini olish uchun, yuqorida

ta'kidlanganidek, po'lat qobiq va Koltunov–Rjanitsinning uch parametrlilik relaksatsiya yadrosi qiymatlaridan foydalanilgan.



4-rasm. Kontur kuchlanish epyurasi (X70):
 1. $\omega=20$ Hz; 2. $\omega=40$ Hz; 3. $\omega=80$ Hz.

Qobiqdagi maksimal kontur kuchlanishlari $\omega \in [19 \div 30]$ Hz chastota qiymatlariga to'g'ri keladi. Epyuralardan ko'rinadiki, to'liq soni βa oshib borishi kuchlanishlarning maksimal qiymatini kamaytirishga imkon beradi. Materiallarning qovushqoqlik xossalarini hisobga olish ko'chish va kuchlanishlarni 10 – 15 % kamaytirishga sabab bo'ladi. Kuchlanishlarning taqsimlanishi esa uzun to'liqlar sohasida ($\frac{D}{\lambda} > 1$) 15 % gacha ko'p bo'lishi ma'lum bo'ldi. Xuddi shunday, ko'ndalang to'liq ta'sirida kuchlanishlar o'zining maksimal qiymatlariga $\theta = 45^\circ$ va 135° burchaklarda erishadi.



5-rasm. Turli burchaklarda kontur kuchlanishining chastotaga bog'liq o'zgarishi


Kontur kuchlanishining ($r=a$) to'liq soniga bog'liq o'zgarishi 5-rasmda keltirilgan

bo‘lib, bunda: 1 chiziq bilan $\theta = 170^\circ$; 2 chiziq bilan $\theta = 110^\circ$; 3 chiziq bilan $\theta = 65^\circ$; 4 chiziq bilan $\theta = 50^\circ$ va 5 chiziq bilan statik holat keltirilgan. Grafiklardan ko‘rinadiki, kontur kuchlanishi o‘zining eng katta qiymatiga kichik chastotalarda erishadi. Mazkur holatda rezonans hodisasi ro‘y berishi mumkin ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ikki xil materiallar Q235 va X70 uchun kontur kuchlanishlarning o‘zgarishi sonli tekshirildi. Sonli natijalar bo‘ylama tushuvchi to‘lqinlar uchun olingan va 6 va 7-rasmlarda keltirilgan.

1-jadval. Ikki xil materiallar Q235 va X70 uchun kontur kuchlanishlarning o‘zgarishi.


Materiallar	Δ	η	ν	γ_α
Q235	0.99	1.05	2.0	30
X70	0-3.0	1.02-1.10	1.0-5.0	0-90

1- Jadvalda: ν – ko‘milish chuqurligi h - ning ichki radius uzunligiga nisbati, $\eta = \frac{b}{a}$ – radiuslar nisbati, $\delta = \frac{\omega b}{c_{p1}}$ – o‘lchamsiz chastota. Epyuralarni qurish uchun quyidagi parammetrlar olindi: $\eta = 1.05; \nu = 2.0; \theta_\alpha = 30^\circ$. Ushbu bobda sayoz ko‘milgan quvur liniyasining ta’sir omillarini o‘rganish uchun to‘lqin funksiyasining xos formalar bo‘yicha yoyish usulidan foydalanilgan.



6-rasm. Kontur kuchlanishning radiuslar nisbatiga bog‘liq o‘zgarishi (Q235)

1. $\theta = 0^\circ, \theta_\alpha = 45^\circ$; 2. $\theta = 60^\circ, \theta_\alpha = 45^\circ$; 3. $\theta = 60^\circ, \theta_\alpha = 60^\circ$;
